



TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

Ibadullayeva Nigora Egamberganovna

Urganch davlat universiteti. San'at kafedrasida katta o'qituvchisi;

ibadullayevanigora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'at mashg'ulotlarida talabalarning badiiy –ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, klassik uslub, axborot-kommunikatsiya texnologiyasi, tasviriy san'at, interfaol usul, "Flipped Class" pedagogik texnologiyasi

XXI asrda innovatsion texnologiyalar inson hayotining turli sohalariga tobora chuqur kirib bormoqda. Haqiqatan ham, deyarli ular qo'llanilmaydigan soha qolmadi. Qalamtasvirni o'rgatishning an'anaviy usullari to'xtamasdan oldinga siljiyapti. Kelajakda bu talabalarga turli xil internet texnologiyalaridan foydalangan holda rasm va chizmalar yaratish jarayonida o'zlarini professional sifatida namoyon etish imkonini beradi, bu esa, o'z navbatida, talabalarning o'qituvchilik mahoratini oshirishga va uchinchi ming yillikning kasbiy faoliyati uchun eng kerakli bo'lgan mutaxassislarini tayyorlashga imkon beradi.

Zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi - turli bilimlarni sintez, integratsiya qilish orqali tasviriy san'at mutaxassislariga mehnat bozorida o'zlarining munosib o'rinlarini topish imkonini beradigan yangi usullar va o'qitish metodikasini o'rganishdir. Jahon bozorida zamonaviy san'atning turli ko'rinishlari to'lib-toshgan va ijodkorlik nuqtai nazaridan o'ziga xos narsa bilan ajralib turish yanada muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi davrda yuqori natijalarga erishish uchun Adobe Photoshop, Corel DRAW, Painter, Paintbrush kabi maxsus dasturlardan foydalanish juda zarur. Muayyan murakkab sirtlarni chizish, ularni proyeksiyalaridan foydalanish yoki san'atning turli sohalarida ijod qilish rassomdan grafik muharrirlar bilan ishlash qobiliyatini talab qiladi. Bu esa hozirgi zamon talabi bo'lib, undan qochib qutulib bo'lmaydi.

Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda qalamtasvir o'qitishning klassik uslubidan voz kechmagan holda o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalaridan qanday foydalanish mumkinligi haqida to'xtalib o'tamiz. Oliy ta'limning Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat yo'nalishida qalamtasvir mashg'ulotlarida dasturga asosan eng avvalo predmetlarni shakli, nisbati, hajmi va konstruktiv tuzilishini o'rganish maqsadida gips geometrik jismlar va uy-ro'zg'or buyumlaridan tuzilgan natyurmort ishlash o'rgatiladi. Gips geometrik jismlardan tashkil topgan natyurmortni o'rgatishda, ishning barcha bosqichlarini majburiy ravishda keng formatli elektron doskada ishlab ko'rsatish lozim. Bu ko'rsatmalik jarayoni talabalarga bilim olish va o'rganganlarini xotirada saqlashni osonlashtiradi. Shuningdek, keying semestrlarda inson boshi, tanasi figurasi ishlanadi. Bu jarayonda albatta 3D modeldan foydalanish juda yaxshi natija beradi. Bundan tashqari talabalar kerakli ma'lumotlarni tezkor topishlari uchun QR kod (kerakli materiallar to'plangan manzil)lardan foydalanish



mumkin. Dars jarayonida shunday vositalardan foydalanilsa qalamtasvir modellarini tushunish va uning nazariy qismini o'rganish uchun kamroq vaqt talab etiladi. Ayniqsa qalamtasvirdan mustaqil ta'lim vazifalarini talabalarga tarqatishda ham xuddi shu usuldan foydalanish mumkin. Talabalar QR kod (kerakli materiallar to'plangan manzil) orqali mustaqil ta'lim topshiriqlarini tez va oson olishadi. Topshiriqni bajarish jarayonida shu topshiriq bo'yicha nazariy ma'lumotlar zarur bo'lsa shu yerdan qiynalmasdan olishadi. Chunki dastur talabalarga bajarilayotgan amaliy topshiriqlarni nazariy jihatlarini o'rgatishni nazarda tutmaydi. Bu ma'lumotlarni talabalar bemalol yuqoridagi usuldan foydalanib o'rganib chiqishlari mumkin. Qolaversa o'quv jarayonida zarur bo'lgan grafik va test komponentlari joylangan resurslarga tezkor havolalar orqali ham kirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, o'quv dasturlariga kiritilgan mavzularda o'rganilayotgan ob'ektlarning uch o'lchovli modellaridan ham foydalanish mumkin.

Respublikamizda ta'lim tizimida AKT texnologiyalaridan foydalanish boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha keyin rivojlana boshladi, ammo shunga qaramay u allaqachon jadallashib, o'qitishning yangi cho'qqilarga ko'tarilishiga sabab bo'lmoqda. Bunday texnologiyalardan foydalanish Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bitiruvchilarning ijodiy salohiyatining ijodkorligiga erishish imkonini beradi. Aynan kompyuter texnologiyasi talabalarga fazoviy tasavvurni tezda rivojlantirish, chuqurroq o'rganish va tasvirlashning turli bosqichlarini takomillashtirishga hissa qo'shish imkonini beradi, bu esa oxir-oqibatda bu jarayonga kamroq vaqt sarflashga imkon beradi. Kompyuter texnologiyasi maqsadlarga erishishda sabr-toqat, qat'iyat va irodani rivojlantirishga yordam beradi. Amaliy faoliyat bilan bog'liq bilimlarning empirik namunasi bu jihatda o'zini eng yaxshi tomondan ko'rsatdi. Slaydlar ko'rsatish, taqdimotlar bilan yangi materialni tushuntirish, badiiy mahorat, xayoliy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish uchun maxsus modullardan foydalanish klassik mashg'ulotlarga qaraganda ancha yaxshi natijalar beradi.[3] Bundan tashqari, birinchi kurs talabalari dastlab yetarlicha amaliy ish tajribasi bilan maqtana olmaydi. Bo'lajak rassomlarning kasbiy mahoratini oshirish uchun juda ko'p mashaqqatli mehnat talab etiladi, bunda axborot texnologiyalari katta yordam berishi mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonida AKT texnologiyalaridan foydalangan holda yangi ma'lumotlarni olish interfaol formatda amalga oshirilsa, kamroq vaqt talab qiladi. Shunda amaliy ishni bajarish tasvirlashning qonun qoidalari asosida olib boriladi. Akademik qalamtasvir maktabi hali ham ta'lim tizimi tomonidan qo'llanilayotgan bo'lsada, u uzoq vaqtdan beri takomillashtirishga muhtoj edi.

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bitiruvchilarning jahon standartlariga javob berishi uchun yangi darajadagi kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat yaratib berish lozim. Shundagina tasviriy san'at ta'limida o'rganishga yaxlit va kompleks yondashuvga erishish mumkin bo'ladi.

Badiiy ta'limda zamonaviy qalamtasvirni o'zlashtirishda 2 xil o'qitish usullaridan foydalanishimiz mumkin.

1. Passiv - bu qalamtasvir nazariyasi qismlari bo'yicha tahlilini taqdim etuvchi ma'ruzalar. Bu yerda talaba juda katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtira bilishi lozim. Bunda amaliy mashg'ulotlarga ko'proq vaqt ajratiladi.



2. Faol - grafik muharrirlarda akvarel bo'yoqlari, turli o'lchamdagi qalamlar, eskizlar uchun flomasterlar va boshqa ko'plab vositalar yordamida ishlashni o'rganish imkonini beruvchi interaktiv texnikani ifodalaydi. Bunda amaliy ish qismiga kirishishdan oldi talaba o'qituvchi bergan materiallarni QR kod (kerakli materiallar to'plangan manzil) yoki HEMIS tizimi orqali olib o'zlashtirib oladi, grafik dasturlar yordamida naturani konstruksiyasini bajarish bosqichlarini o'zlashtiradi va amaliy mashg'ulotlarni klassik uslubda auditoriyada bajaradi.

Bu "Flipped Class" pedagogik texnologiyasi asosida o'qitish hisoblanadi.

"Flipped Class" texnologiyasida o'quv jarayonining asosiy qismlari bo'lgan dars bilan uyga vazifaning o'rnini almashtirilib, avval uyga vazifani bajarish jarayonida video, audio va boshqa interfaol materiallar o'rganiladi va bo'lajak darsga tayyorgarlik ko'riladi, keyin darsda mavzu mazmunini amalda qo'llash masalalari ko'riladi. Bunda birinchi amaliy ish soya va rang berish usullarini o'rgatish bilan bog'liq bo'ladi, keyin esa ko'proq hajmli kompozitsiyalarga, shu jumladan odamlar guruhlarini rasmlarini chizishga o'tiladi. AKT texnologiyalari yordamida kompozitsiya asoslarini qulay shaklda o'rganish, detallar, yorug'lik va soya va hajm bilan ishlashni o'rganish mumkin. Tasviriy san'atda qo'llaniladigan interfaol mashg'ulotlarning afzalligi – o'rganishning eng muhim jihatlari sifatidagi amaliy mashg'ulotlarga ko'proq vaqt ajratilishi, nazariyadan amaliy faoliyatga tezroq o'tish bilan tavsiflanadi, bu ba'zan an'anaviy qalamtasvir o'qitish tizimida yetishmaydi. Interfaol mashg'ulotlarning bu jihatlari talabaning mustaqil ishini tashkil etishda samarali foydalanish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib oliy o'quv yurtlarida talabalarning badiiy – ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va uning amaliy jihatlari mukammal o'rganish va uni o'qitishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish hamda amalga tadbiiq qilish muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Biz zamon talabidan, ta'lim tizimida rivojlangan davlatlar erishgan yutuqlardan kelib chiqib, zamonaviy talabga javob beradigan kadrlarni tayyorlash borasida o'z oldimizga yangidan-yangi maqsadlarni qo'yishimiz zarur. Nafaqat maqsad qo'yish, unga erishishning zamon taqozo etayotgan strategiyasi hamda bu yo'lda amalga oshiriladigan yangilanish tamoyillarini aniqlab, doimo olg'a intilishimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Голицын.И.В. Разговор об искусстве/ И.В.Голицын.–М.:Русский мир,2015.
2. Дирксен, Дж. Искусство обучать: как сделать любое обучение нескучным и эффективным / пер. с англ. О. Долгова. – М: Манн, Иванов и Фербер,2017.
3. Ibadullayeva N.E. Tasviriy san'at ta'limida talabalarning badiiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda kompyuter grafikasi imkoniyatlaridan foydalanish. International scientific and practical conference on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education:problems and solutions".Vol.I.No.01.20 november 2023.Qarshi-2023. <https://ojs.qarshidu.uz/index.php/ts/article/view/206>



4. Ibadullayeva N.E. Talabalarning badiiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda rangtasvirdan mustaqil badiiy va ijodiy faoliyatni tashkil etishning ahamiyati. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali. Journal of integrated education and research. ISSN 2181-3558.VOLUME 2, ISSUE 6.COLLECTION B JUNE 2023. 42-46 betlar. <https://ojs.rmasav.com/index.php/ojs/issue/view/29/50>